



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2022- YIL YANVAR-OKTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 69-211-72-00




www.namstat.uz

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


2022- yil yanvar-oktabr oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 14 157,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 109,5 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,5 % ni tashkil etdi.



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati 125,7 % ga o'sishi hisoblanadi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 69,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat


2022- yil yanvar-oktabr oylarida



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11 389,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,5 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2021- yilning yanvar-oktabr oylarida – 1,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,7 % (6,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 13,0 % (13,3 %) va quyi texnologiyalisi – 77,1 % (78,9 %) ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-oktabr oylarida

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 37,2 % (2021-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 20,5 % (2021-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,3 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,8 % (2021-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 131,5 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,9 % (2021-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 68,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 5,1 % (2021-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 190,3 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari




2022- yil yanvar-oktabr oylarida




2022-yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 96,9 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2021-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 7,8 % ga kamaygan), 20,3 ming tonna paxta tolasi (18,6 % kamaygan), 9,7 ming. tonna yog' mahsulotlari (5,7 % ga kamaygan) hamda 34,7 ming tonna paxta chigiti (17,2 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish




Metallurgiya sanoati

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 1,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 97,4 % bo'lgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,0 % ga pasayib, fizik hajm indeksi esa, 32,0 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 123,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 438,0 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 4,0 % ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 503,0 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2 022,0 mlrd so'mni, joriy 2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2 434,2 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 412,2 mlrd so'mga ortgan.



Ichimliklar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 397,4 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 465,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 68,1 mlrd. so'mga ko'paygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,3 %ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish




2021-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 118,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 102,8 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 724,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish


2021-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 9,3 % ni, yani jami 1 023,0 mlrd so'mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 9,6 % ni tashkil etib, 1 357,0 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 334,0 mlrd. so'mga oshgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 172,9 mlrd. so'mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha 491,0 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 3,4 % ni, tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2021-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 9,7 mlrd. so'mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 0,9 mlrd. so'mga ko'payib, 10,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, yani 176,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 58,0 mlrd. so'mga ko'paygan va 234,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-oktabr oylarida

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 563,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,0 % ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 594,9 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2022- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	5 542,0	5 388,3	-153,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	64,5	52,7	-11,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 135,7 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 %ini) tashkil



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 12,5 mlrd. so'm yoki 18,7 % ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,2 mlrd. so'mga ko'paygan.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 033,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish 118,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 56,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




Nooziq-ovqat mahsulotlar

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 40,2 % ni, shuningdek, Chust tumani 11,5 % ni, To'raqo'rg'on tumani 9,0 % ni, Namangan tumani 8,2 % ni Kosonsoy tumani 7,8 % ni, tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 3 235,8 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 40,2 %, Chust tumanida 924,1 mlrd. so'm bo'lib, 11,5% ni shuningdek, To'raqo'rg'on tumanida 722,3 mlrd so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 9,0 %ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm


Namangan viloyati

6 112,0 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-oktabr





8 033,2 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-oktabr



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 38,1% shuningdek, Chust tumani 15,4 %, To'raqo'rg'on tumani 12,2 % ni tashkil etadi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 44,8 % ni, shuningdek, Namangan tumani 10,0% ni, Uchqo'rg'on tumani esa 9,5 % ni tashkil etdi.


Namangan viloyati

2 171,8 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-oktabr

2 540,5 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-oktabr



2021- yil

119,4 %

2022- yil

110,6 %

Namangan sh.

107,6

1 141,8

Mingbuloq

129,1

73,6

Kosonsoy

129,7

65,5

Namangan

99,9

254,3

Norin

115,0

47,7

Pop

118,2

163,3

To'raqo'rg'on

119,6

53,4

Uychi

95,9

116,1

Uchqo'rg'on

112,8

240,1

Chortoq

133,0

195,4

Chust

113,0

80,7

Yangiqo'rg'on

110,8




108,6

o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Namangan viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 37,0 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 19,3 %ni, Chust tumani 9,0 %ni, Namangan tumani 6,0 % tashkil etdi.


Namangan viloyati



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (11 586,5 ming so'm), Namangan shahrida (7 842,7 ming so'm), Namangan shahrida (7 842,7 ming so'm), tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.



 o'sish sur'ati
 ming. so'm

Namangan viloyati

2021- yil

3 835,9 ming. so'm

2022- yil

4 790,9 ming. so'm



2021- yil

114,5 %




2022- yil

107,1 %

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 6 331,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,7 % ni tashkil etdi.


Namangan viloyati





 *jamidagi ulushi*
 *mlrd. so'm*

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Namangan viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 718,4 ming so'm bo'lgani holda, Namangan shahrida – 4 848,3 ming so'mni, Chust tumanida 3 343,8 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 3 064,1 so'mni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
ming. so'm



Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 7 720 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 940 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,1 % i) Namangan shahriga, 595 tasi (7,7 %) Kosonsoy tumaniga, 576 tasi (7,5 %) Uychi tumaniga, 551 tasi (7,1 %) Namangan tumaniga, 549 tasi (7,1 %) Chust tumaniga, 482 tasi (6,2 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

1 466 dona

2021- yil yanvar-oktabr

1 246 dona

2022- yil yanvar-oktabr



Jami faoliyat yuritayotgan

7 472 dona

2021- yil yanvar-oktabr

7 720 dona

2022- yil yanvar-oktabr

Namangan sh.

487

2 940

Mingbuloq

29

199

Kosonsoy

77

595

Namangan

91

551

Norin

56

393

Pop

50

297

To'raqo'rg'on

52

482

Uychi

85

576

Uchqo'rg'on

134

430

Chortoq

60

341

Chust

53

549

Yangiqo'rg'on

72

367

yangi tashkil etilgan
faoliyat yuritayotgan